

KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOYALANISH USULLARI

Maksimova Zeboxon Nomon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish :

Ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

maksimovaz0215@gmail.com

Annotatsiya: Maqola kiberxavfsizlik atamasining mohiyati, uning jamiyat hayotidagi roli va zamonaviy hayotda unga bo'lgan talab darajasi; Kiberxavfsizlikning davlatlar kesimida reytingi va O'zbekistonda kiberxavfga qarshi chora tadbirlarning ko'rilishi haqida fikrlar keltiradi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, kiber, onlayn xaridlar, veb-saytlar, moliyaviy ma'lumotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, axborot texnologiyalari.

Kiberxavfsizlik nima ? Ikki qismdan iborat ushbu so'z qanday ma'noni anglatadi, va bu sohaning hozirgi kunda insonlar hayotida tutgan o'rni qanday ?

Kiberxavfsizlik atamasi “yangi” atama emas, lekin ba'zilarimiz bu nimani anglatishini yoki nima uchun bunday deb atalishini bilmasligimiz mumkin. Kiberxavfsizlikning ma'nosini to'liq tushunish uchun, keling, bu so'zni ikki qismga ajratamiz: “kiber” va “xavfsizlik”. «Kiber» atamasi odatda kompyuterlar, axborot texnologiyalari yoki internet bilan bog'liq narsalarni ifodalaydi. Buni yaxshiroq tushunish uchun uni kompyuterlar va internetga tegishli maxsus so'z sifatida tasavvur qilishimiz maqsadga muvofiq .

Kundalik hayotimizda shaxsiy ma'lumotlarimizni : ism-sharifimiz, tug'ilgan sanamiz, manzilimiz va hattoki telefon raqamlarimizni ham onlayn platformalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa veb-saytlarda bo'lishamiz. Elektron pochta manzilimiz va karta raqamlarimizni ommaga olib chiqishimizni esa aytmasa ham, bo'ladi.

Xo'sh, o'ylab ko'rdikmi, agar bu ma'lumotlar "egri" qo'llarga tushib qolgudek bo'lsa, nimalar bolishi mumkinligi haqida (Firibgarlik, o'g'rilik yoki shaxsiy hayotimizga tajovuz). Shu bilan birga, onlayn xaridlarni amalga oshirganimizda yoki boshqa elektron sohalarda bizning xavfsizligimiz qay darajada xavf ostida qolishi mumkinligi haqida.

Bundan tashqari, biz onlayn xaridlarni amalga oshirganimizda, internet-banking xizmatlaridan foydalanganimizda yoki soliq deklaratsiyalarini to'ldirganimizda ham shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarimizni himoya qilishimiz kerak. Bu ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun biz ishonchli veb-saytlardan foydalanishimiz, kuchli parollarni tanlashimiz va ularni muntazam ravishda yangilashimiz, hamda shubhali havolalarga kirishdan saqlanishimiz lozim.

Statistikaga ko'ra, kiberxavfsizlik bo'yicha Tojikiston dunyodagi eng kam himoyalangan mamlakat bo'lib, undan keyin Bangladesh va Xitoy o'rin olgan. **Daniya esa 3,56 ball bilan eng kiberxavfsiz mamlakat** hisoblanadi. Afsuski, O'zbekiston 26.88 ball bilan 8-o'rinda turadi, ammo dunyoning rivojlangan davlatlari qatori O'zbekistonda ham kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi qarori bilan davlat unitar korxonasi shaklida «Kiberxavfsizligi markazi» tashkil etildi. Kiberxavfsizlik sohasiga tegishli **17 ta** qonun hujjati, Prezidentning **9 ta** farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining **14 ta** qarori, shuningdek tegishli normalar va ko'plab idoralararo me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Global kiberxavfsizlik reytingi birinchi marta 2015-yilda Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi tomonidan eA'lon qilingan. Unda mamlakatlar kiberxavfsizlikka bo'lgan jami beshta — huquq, texnika, tashkiliy choralar, hamkorlik va salohiyatni rivojlantirish yo'nalishiga ko'ra baholanadi. Har biri yo'nalish uchun 20 ball ajratiladi va bu umumiy 100 balni tashkil qiladi. Global kiberxavfsizlik darajasi bo'yicha 194 mamlakatni o'z ichiga olgan 2020-yil reytingida O'zbekiston **70-o'rinni** egalladi. O'zbekiston mazkur yo'nalishlar ichida huquqiy choralar bo'yicha 19.27 ball, hamkorlik bo'yicha 13.56 ball, salohiyatni rivojlantirishda 15.68 ball, tashkiliy choralar bo'yicha 10.05 ball hamda texnik choralar bo'yicha 12.56 balni qo'lga kiritgan. Shu tariqa mamlakat

jami 71.11 ball olgan. Markaziy Osiyo davlatlari orasida kiberxavfsizlik bo'yicha Qozog'iston **31-o'rin**, Qirg'iziston **92-o'rin**, Tojikiston **138-o'rin**, Turkmaniston **144-o'rinni** qayd etgan. Korxonalar va tashkilotlarning kiberxavfsizlikka jiddiy e'tibor qaratmasliklari axborot tizimlaridagi zaifliklar yoki xavfsizlik kamchiliklarga, sezilarli moliyaviy yo'qotishlarga, obro'ga putur yetkazishga va mijozlar ishonchini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Kompaniyalar o'z tizimlarini himoya qilish uchun firewalls, antivirus dasturlarini o'rnatishlari, xodimlarni kiberxavfsizlik bo'yicha o'qitishlari va doimiy ravishda tizimlarini tekshirib turishlari zarur. Aholi orasida esa unga qarshi immunitetni shakllantirish, elektron hujumlardan ogohlantirish zarur. Zero, ogohlik - davr talabi!

1. G'aniyev S. K. ,Karimov M. M., Tashev K. A. AXBOROT XAVFSIZLIGI Toshkent 07
2. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o'quv qo'llanma Toshkent 07
3. G'aniyev S.K.Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi TDTU 03 4. <http://www.kaspersky.ru/>
5. <http://www.viruslist.ru/>
6. http://www.citforum.ru/internet/infsecure/its2000_01.shtml/
7. <http://www.osp.ru/lan/2001/04/024.htm>/8. <http://www.osp.ru/lan/2001/03/024.htm>/